







# Termiz shahridagi maktablarda «turniket» oʻrnatilmoqda



Joriy yil 27 fevral kuni viloyat hokimi mutasaddilar bilan Termiz shahridagi 19-sonli maktabda boʻlib, shahardagi 27 ta maktabga “KPI” tizimini joriy etish, kameralashtirish hamda “turniket” oʻrnatish boʻyicha vazifalarni belgilab bergan edi.



Bugun viloyat rahbari Termiz shahridagi 26-sonli maktabda videokuzatuv moslamalarining ish jarayonlari hamda “turniket” tizimini joriy etish ishlari bilan tanishdi. Tizimga koʻra, oʻquvchi maktabga kirgach “turniket” tizimining yuzni tanib olish funksiyasi bilan jihozlangan kameralari yordamida uning maktabga kelganligi toʻgʻrisida qaydlarni markaziy serverga uzatadi hamda shu orqali ota-onaga farzandi maktabga kelganligi toʻgʻrisida sms-xabarnoma yuboriladi.



Maktab xonalari ham kameralashtirilgan boʻlib, dars jarayonlarining borishi mutasaddilar tomonidan monitoring qilib boriladi. Viloyat rahbari tizim haqida taqdimot

bilan tanishib, mutasaddilarga maktablarda bosqichma-bosqich ushbu namuna asosida tizimni o'rnatish vazifasini topshirdi.

Viloyat rahbari maktabda ta'lim jarayonlari bilan ham tanishib, o'quvchilar bilan suhbatlashdi. Iqtidorli o'quvchilarga sovg'alar topshirildi.

